XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-yanvar VII-4-7-3-0-K/25 Jizzax viloyati

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Qulpisar mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan tanlangan yer maydonining soliq stavkasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasi 2-bandi, Jizzax viloyati soliq boshqarmasining 2025-yil 9-yanvardagi 25-04202-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sharof Rashidov tumani hokimligining 2025-yil 9-yanvardagi 01-17-sonli Sharof Rashidov tumani Qulpisar mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydoni uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer maydoni uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsiyentni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2. Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Qulpisar mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer maydonini soliq stavkasini 1 gektar yer maydoni uchun 0.5 koeffitsiyent, 19,8 (o‘n to‘qqiz million sakkiz yuz ming) mln. so‘m etib belgilansin.

3. Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashiga ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Sharof Rashidov tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi VII-3-012-3-46-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Adilov), Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi (E.Shermonov), “Jizzax haqiqati”-“Djizakskaya pravda” gazetasi (B.Nazarov) qarorni rasmiy nashrlarda va OAVlarda e’lon qilinishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Azimov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi



SHUKUROV PARDA
XXX